

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



«TASDIQLAYMAN»
Navoiy davlat pedagogika instituti
rektori M.B.Kalonov

2024 yil "6" 09

BADIIY NAQQOSHLIK

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 110 000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi: 70111201 – Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati

Fan/modul kodi BadN207	O'quv yili 2024-2025	Semestr 4	Kreditlar 7	
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Badiiy naqqoshlik	90	120	210
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi – magistrarga naqsh kompozitsiyalarini ishlash texnologiyasini o'rgatish orqali bezaklarning falsafiy, tarbiyaviy ahamiyati, ahloqiy, estetik va g'oyaviy mehnat tarbiyasini o'stirish; magistrarga go'zallikni sezishga, o'qiy olishga va uni o'z qo'llari bilan yaratishga doir bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.</p> <p>Fanning asosiy vazifasi – magistrarga naqsh kompozitsiyalarini ishlash texnologiyasi haqida ma'lumotlar berish, ustoz va shogird odobi nazariyasini o'rgatish, naqsh elementlari, oddiy naqsh namunalari va ulardan kompozitsiyalar tuzish, sodda va murakkab uslubda naqqoshlik ishlarini amalda bajarish; binolarni badiiy loyihalash va naqsh bilan bezashgacha bo'lgan nazariy va amaliy tomonlarini o'rgatishdan iborat.</p> <p>Magistrlarning badiiy naqqoshlikni yanada chuqur o'zlashtirishlarida o'qitishning ilg'or va zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhimdir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv uslubiy qo'llanmalar va ma'ruza matnlari, elektron adabiyotlar va tasvirlar, elektron materiallar, amaliy san'at atributlaridan to'la foydalaniladi. Yetuk o'zbek va xorijiy amaliy san'at ustalarining jahon miqyosida tan olingan naqqoshlik san'at asarlari namunalari hamda metodik jihatdan mukammal reproduktiv ishlari; zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar tashkil etish; buyuk amaliy san'at ustalari va ularning ijod etish jarayonlarini aks ettirishga bag'ishlangan kino lentalarini, chop etilgan namuna va elektron versiyalaridan keng foydalaniladi.</p> <p style="text-align: center;">II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>I-MODUL: NAQQOSHLIK SAN'ATI VA UNING TARIXI</p> <p>1-mavzu. Naqqoshlik san'ati fanining maqsadi va vazifalari. Naqqoshlik san'atining inson hayotida tutgan o'rni.</p> <p>2-mavzu. Naqqoshlik san'atining kelib chiqishi, rivojlanishi. Naqqoshlik maktablari va ularning namoyandalari.</p> <p>3-mavzu. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va materiallar.</p> <p>4-mavzu. Naqqoshlik mashg'ulotlari o'tkaziladigan xonani jihozlash, ishlatiladigan materiallar va asboblari</p> <p>II-MODUL: USTA VA SHOGIRD ODOBI.</p>			

5-mavzu. Hunarmadchilik odobi tarixi, hunarmandlar mahallalari. «Ustoz-shogird» anʼanalari asosida Naqqoshlik hunarining oʻrgatilishi.

6-mavzu. Ustoz odobi, shogird odobi. Ustoz va shogirdning shaxsiy va kasbiy fazilatlari mezon.

7-mavzu. Naqsh elementlarini chizish. Oʻsimliksimon, geometrik, ramziy va boshqa naqshlar.

8-mavzu. Naqsh tili. Naqsh tili alifbosi, naqshda simmetriya ritm, siluet, joylashtirish, kompozitsiya.

9-mavzu. Taqsim va uning turlari: aylana taqsim, toʻgʻri taqsim, chaprost taqsim.

10-mavzu. Stilizatsiya va uning oʻziga xos tomonlari. Oʻsimliksimon naqsh elementlarini bosqichma-bosqich chizish metodikasi.

III. Amaliy mashgʻulotlari boʻyicha koʻrsatma va tavsiyalar

Amaliy mashgʻulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Bir necha elementlar kombinatsiyasi asosida tashkil topgan naqsh namunalarini oddiydan murakkabga, yaʼni tartib raqami boʻyicha chizish geometriyasi.
2. Oʻnta xoshiyasimon naqsh: 1-bodom guli.
3. Oʻnta xoshiyasimon naqsh: 2-pechaksimon islimi.
4. Oʻnta xoshiyasimon naqsh: 3-bargli raftor islimi.
5. Oʻnta xoshiyasimon naqsh: 4-bargli islimi.
6. Oʻnta xoshiyasimon naqsh: 5-aylana shukuftli islimi.
7. Oʻnta xoshiyasimon naqsh: 6-mehrob islimi.
8. Oʻnta xoshiyasimon naqsh: 7-boftali islimi.
9. Oʻnta xoshiyasimon naqsh: 8-qoʻsh mexrobli islimi.
10. Oʻnta xoshiyasimon naqsh: 9-patnis gul islimi.
11. Oʻnta xoshiyasimon naqsh: 10-shukuftali islimi.
12. Rangshunoslik va boʻyoqlardan foydalanish texnologiyasi.
13. Rangshunoslik tarixi, ranglarning insonga psixologik taʼsiri.
14. Ranglarda ramziylik, falsafa. Rang va ularning turlari.
15. Iliq va sovuq ranglar. Axromatik va xromatik rang.
16. Ranglarda tuyinganlik. Rang yorqinligi. Ranglar garmonligi. Rang kontrasti. Ranglarni tozaligi. Tuldiruvchi ranglar.
17. Akvarel, guash tempera va moy boʻyoqlaridan foydalanish yoʻllari.
18. Boʻyoqlarning turli materiallarda qoʻllanilishi. Rangshunoslikka oid mashqlar bajarish.
19. Naqshlar zaminini boʻyash. Naqshlardagi gul, barg, novda elementlarini turlash.
20. Boʻyoqlarning uygʻunligi va oʻzaro birikishi haqida tushuncha. Yashil, havo rang, jigar rang va boshqa koloritlarda ishlash.
21. Naqshlarni pardozlash. Siyoh obi va targil berish.
22. Girih tarlar. Girihchi ustalar. Girihlarga nom qoʻyish.
23. Girihlar kombinatsiyasi asosida kompozitsiyalar tuzish metodikasi.

24. Girihlarni bo'yash va unga pardozi berish. Sodda naqsh kompozitsiyalarini tuzish va bo'yash.

25. Kompozitsiya haqida tushuncha. Kompozitsiya turlari. Kompozitsiyaga nom qo'yish.

26. O'simliksimon naqsh kompozitsiyalari tuzish qoidalari, yo'l ichida, kvadrat, uchburchak, doira va kupburchak shaklida naqsh kompozitsiyalari tuzish.

27. Naqqoshlikda yog'och buyumlarini yasash va ularga naqsh ishlash uchun asbob-uskunalar, ya'ni har xil jilvirlar, duradgorlik yelimi, katta-kichik belchalar bur, alif, guash, akvarel, bo'yoq, bronza, oq hal, mo'yqalam va b.

28. Biror buyumni yasash: yog'och tanlash, randalash, arralash, biriktirish, jilvirlash.

29. Shpaklyovka tayyorlash. Gruntovkalash, ishchi yuzani tilla hal, kumush yoki biror bir umumiy rang bilan bo'yash. Xoka tayyorlash.

30. Oddiy yog'och buyumlar: sabzitaxta, qalamdon, tuzdon, navo, ramka va boshqalarni naqshlash.

31. Murakkab hajmli buyumlarni badiiy bezash (shkaf, kursi, xontaxta, toshoyna, shirma, kitob javoni).

32. Buyumni yasash, gruntovkalash hamda naqsh tushirish.

33. Buyumni ranglash va pardozlash.

34. O'zbek milliy binolarining intereri va ekstererini badiiy bezash.

35. O'zbekistonda ma'muriy va turar joy binolarini badiiy bezash metodlari. Interer devorining izora, o'rta va sharofasi, shifti hamda ustunlarining badiiy bezaklari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Magistr mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari hamda mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;

- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;

- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

- masofaviy ta'lim.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. «Ustoz-shogird» an'analari asosida naqqoshlikning o'rgatilishi.

2. Oddiy naqsh elementlarini chizish. Gul, barg, novda, shkifta, bofta va boshqa elementlarni chizish.

3. Oddiy naqsh namunalarini tartib raqami bo'yicha chizish va bo'yash. (1-10-gullar)

4. Rangshunoslik texnologiyasi. Ranglash va pardozlash turlari.

5. Oddiy naqsh namunalarini bo'yash va unga pardozi berish.

	<p>6. Naqqosh ustalar ishlaridan nusxa ko'chirish.</p> <p>7. Buyum yuzalariga naqsh kompozitsiyasi chizish. Kompozitsiyani ranglash va pardozlash.</p> <p>8. Ko'p qirrali stol, kursi yoki xontaxtani naqshlash.</p>
4.	<p>VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Magistr bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> – naqqoshlik texnologiyasining tarixiy rivojlanishi; – naqqoshlik texnologiyasini talabalarga o'qitish metodikasi; – sharq xalqlari va o'zbek xalqi amaliy san'atning o'zaro ta'siri; – amaliy san'at buyumlarini yaratish bosqichlari; – amaliy san'at turlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida nazariy <i>bilishi kerak.</i> – amaliy san'at buyumlarini yaratish bosqichlari; – buyumda shakl, kompozitsiya va rang uyg'unligi; – buyumga mos naqsh turini tanlash, kompozitsiya tuzish va ranglash bosqichlari; – naqshni sifatli bajarish va bo'yash; – pardoz va uning turlari; – bo'yalgan naqsh kompozitsiyasiga mos pardoz turini tanlay bilish va amalda sifatli bajarishga oid <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi;</i> – texnika xavfsizligi qoidalari, asbob-uskunalar va dastgoxlardan to'g'ri foydalanish; – naqqoshlikda ishlatiladigan yog'och xom-ashyolari, uning turlari va ularni tayyorlash; – naqqoshlikka xos naqsh turlarini, naqsh elementlaridan foydalangan holda mustaqil ravishda naqsh kompozitsiyasi tuzish; – buyum yasash texnologiyasi; – naqsh yuzasiga rang berish va laklash texnologiyasi to'g'risida aniq <i>malakalariga ega bo'lishi kerak.</i>
5.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
6.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>

7.

IX. Asosiy adabiyotlar:

1. Bulatov S.S. O'zbekiston xalk amaliy bezak san'ati. -T: Mehnat, 1991.
2. Bulatov S.S. Ashurova M.O. Amaliy san'at qisqacha lug'at.-T: qomuslar bosh tahririyati, 1992.
3. Bulatov S.S., Dadashev E. Naqsh alifbosi. – T.: Cho'lon, 1999.
4. Qosimov Q. Naqqoshlik. – T.: O'qituvchi, 1990.

Qo'shimcha adabiyotlar:


5. Azimov I. O'zbekiston naqshu nigoralari. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1987.
6. «Naqqoshlik» dan ma'ruzalar matni. K.M.G'ulomov, B.Xolmatov 2003.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
Farmoni**

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108-son farmoni.

Axborot manbalari

1. www. gov. uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www. lex. Uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www. tdpu. Uz
4. www. Ziyonet. Uz
5. www. edu. Uz
6. tdpu - INTRANET. Ped
7. www. nbgf. Intal. Uz

8.	Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024 yil " <u>6</u> " <u>09</u> _____ dagi qarori bilan tasdiqlangan
9.	Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari: Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası v.b.dots. p.f.f.d. (PhD) <u></u> S.A.Shovdirov
10.	Taqrizchilar: O.D.Raximov – NDPI, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası dotsenti S.S.Abdullayev – BuxDU "Tasviriy san'at va amaliy san'at kafedrası" dotsenti

Kafedra mudiri _____



t.f.n. A.H.Abdullayev

№ Ts/M-90d